
EYIB
EDUCATIONAL YIELD
INSIGHTS & BREAKTHROUGHS
TA'LIMGA OID TUSHUNCHALAR VA YUTUQLAR
ISSN:3060-4648
Vol.7 №3
https://eyib.uz



O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI TAQSIMOTIDA IJTIMOIY SOHA XARAJATLARI VA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH

Azimova Sarbona Odiljon qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat budjeti taqsimotida ijtimoiy soha xarajatlari va tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini o‘rganishda turli iqtisodchi olimlarning nazariy yondashuvlari e’tiborga olingan. O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti taqsimoti, davlat budjetida ijtimoiy soha xarajatlari va tashabbusli budjetlashtirishni amalga oshirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: budjet, mahalliy budjet, davlat budjeti, tashabbusli budjetlashtirish, ijtimoiy soha, ijtimoiy soha xarajatlari, loyiha, ochiq budjet.

SOCIAL SECTOR EXPENDITURES AND PARTICIPATORY BUDGETING IN THE ALLOCATION OF THE STATE BUDGET IN UZBEKISTAN

Abstract: This article studies the allocation of the state budget in Uzbekistan, focusing on social sector expenditures and the practice of participatory budgeting, while incorporating the theoretical perspectives of various economists. It analyzes the distribution of the state budget in the Republic of Uzbekistan, specifically regarding social sector spending and the implementation of participatory budgeting. Conclusions are drawn based on the analysis conducted.

Keywords: budget, local budget, state budget, participatory budgeting, social sector, social sector expenditures, project, open budget.

Kirish

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning chuqurlashishi davlat byudjetining g‘azna ijrosini tashkil etishdagi rolini yanada oshirib, moliya-byudjet sohasidagi huquqlarini kengaytirish va ularning moliyaviy bazasini mustahkamlashni talab qiladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “iqtisodiyotdagi tizimli o‘zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi joriy yilda 35 foizdan 37 foizga ortishi kutilmoqda. Biroq ayrim shahar va tumanlarda bu o‘ta muhim masalalarga yetarlicha e’tibor berilmayapti. Oqibatda, respublikaning 27 ta tumanida sanoatning ulushi viloyat ko‘rsatkichining 1 foiziga ham yetmaydi. Shu sababli har bir

tuman va shahar sanoatini rivojlantirish bo‘yicha o‘rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish kerak” [1]. Shu sababli O‘zbekistonda davlat budjeti taqsimotida ijtimoiy soha xarajatlari va tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Ma’lumki, har bir mamlakatning normal ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun samarali faliyat qiluvchi davlat zarur. Davlat jamiyatga va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish, iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning samarali faoliyat qilishi uchun me’yoriy va institutsional tuzilmalarning qonuniy asoslarini yaratish va shu bilan o‘z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib berish vazifalarini bajaradi. Shu vazifalardan kelib chiqqan holda. Davlatning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Bozor xo‘jaligining institutsional asoslarini shakllantiruvchi qonuniy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish, amalga oshirish va takomillashtirish;
2. Makroiqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiyotni samarali boshqarish va tartibga solish;
3. Asosiy ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
4. Milliy manfaatlarni himoya qilgan holda, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish va tartibga solish;
5. Davlat boshqaruvini, mamlakat mudofaasi va milliy havfsizligini ta’minlash;
6. Tabiat muhofazasi va ekologik muvozanatni ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish va sh.k.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mamlakat iqtisodiy salohiyatining oshib borishi bilan davlatning kuch-qudrati, uning o‘z funksiyalarini kengaytirib borish imkoniyati ortib boradi. Davlat o‘z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, shuningdek, rivojlanishning har bir bosqichida dolzarb bo‘lgan strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma’lum bir qismini o‘z qo‘lida to‘plamog‘i obyektiv zaruriyatdir. Aynan shu obyektiv zaruriyatning mavjud bo‘lishi davlat budjetining mavjud bo‘lishini va amal qilishini taqozo etadi.

Davlat budjetining mazmunini yoritishga turli davr va turli yo‘nalishdagi iqtisodiy maktablar iqtisodchi olimlari turlicha yondoshganlar.

Budjetning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritishda uning:

- iqtisodiy kategoriya sifatida;
- moddiy tushuncha sifatida;
- huquqiy kategoriya sifatida mavjud ekanligini va amal qilishini nazarda tutish muhimdir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida davlat budjeti – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida mamlakatda yaratilgan milliy daromadni (qisman milliy boylikni) qayta taqsimlash yuzasidan kelib chiqadigan pul munosabatlari tizimi bo‘lib, ular natijasida iqtisodiyotni, ijtimoiy-madaniy sohalarni, mudofaa va davlat boshqaruvi

ehtiyojlarini moliyalashtirishga mo‘ljallangan pul fondi – budjet tashkil topadi va maqsadga muvofiq tarzda ishlatiladi.

Moddiy tushuncha sifatida davlat budjeti – markaziy hukumat va tegishli darajadagi mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta’minlovchi, ular oldidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondidir. Davlat budjeti – davlat pul mablag‘larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Huquqiy kategoriya sifatida davlat budjeti – markaziy va tegishli mahalliy hokimiyat va ijroiya organlari tomonidan ishlab chiqiladigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan, markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondini shakllantirish, taqsimlash va maqsadli ishlatishni ko‘zda tutuvchi asosiy moliyaviy reja, yuridik hujjatdir. Yuridik hujjat sifatida O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti to‘g‘risidagi huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda va muddatlarda har moliya yili uchun (O‘zbekiston Respublikasida moliya yili kalendar yiliga mos keladi, lekin dunyo mamlakatlarida ularning an’analari va mamlakat hayotidagi muhim, hal qiluvchi tarixiy sanalariga muvofiq, budjet yili kalendar yiliga mos kelmasligi mumkin) tuziladi, ko‘rib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mamlakat iqtisodiy salohiyatining oshib borishi bilan davlatning kuch-qudrati, uning o‘z funksiyalarini kengaytirib borish imkoniyati ortib boradi. Davlat o‘z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, shuningdek, rivojlanishning har bir bosqichida dolzarb bo‘lgan strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma’lum bir qismini o‘z qo‘lida to‘plamog‘i obyektiv zaruriyatdir. Aynan shu obyektiv zaruriyatning mavjud bo‘lishi davlat budjetining mavjud bo‘lishini va amal qilishini taqozo etadi.

Davlat budjeti - bu davlat moliyasi tizimining va butun moliya tizimining yetakchi zvenosi bo‘lib hisoblanadi. Davlat budjetining o‘ziga xos bir qancha xususiyatlari mavjud va ular quyidagilardan iborat:

birinchidan, davlat budjeti mustaqil iqtisodiy kategoriya bo‘lib, o‘zini taqsimlash va nazorat qilish funksiyalari orqali namoyon etadi;

ikkinchidan, o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra davlat budjeti milliy daromadni va milliy boylikni qayta taqsimlovchi qurol (vosita) bo‘lib xizmat qiladi;

uchinchidan, o‘zining moddiy tarkibiga ko‘ra davlat budjeti mamlakatning asosiy markazlashtirilgan pul fondi bo‘lib xizmat qiladi;

to‘rtinchidan, moliyaviy negizining qonuniy belgilanishi iuqtai-nazaridan davlat budjeti - bu qonuniy kuchga ega bo‘lgan mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi bo‘lib hisoblanadi;

beshinchidan, davlat budjeti ishchi kuchi yaratishning elementi bo‘lib hisoblanadi, chunki ishchi kuchi yaratish asosan ta’limga, sog‘liqni saqlashga, ijtimoiy sug‘urta va pensiya ta’minoti xarajatlariga bog‘liqdir.

Shuni ta’kidlash lozimki, mahalliy budjetlar imkoniyatlarini baholash bevosita ushbu tushunchaning tub mohiyatini aniqlashni talab qiladi. “Hududiy iqtisodiyot”, “mahalliy budjet imkoniyatlari” tushunchalariga berilgan ko‘plab ta’riflarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat hollarda har bir ta’rif o‘z muallifining muayyan fikr va qarashlarini tasdiqlash maqsadida shakllantirilgan bo‘lib, ularda bu tushunchalar bilan bog‘liq ko‘plab jihatlarning alohida bir tomoni bo‘rtirib ko‘rsatilgan. Holbuki, ilmiy tushunchalar ta’rifi jarayon va hodisalarning muhim jihatlarini qamrab olishi, aniq va lo‘nda bo‘lishi kerak. Ayrim iqtisodchilar “hududiy moliyaviy imkoniyat” tushunchasi bilan “mahalliy moliyaviy imkoniyat” tushunchasini bir tomondan, “moliyaviy resurslar” va “moliyaviy imkoniyatlar” tushunchalarini ikkinchi tomondan bir xil ma’noda talqin etmoqdalar [2].

Byudjet xarajatlarini yagona davlat (ijtimoiy jihatdan maqbul va ilmiy asoslangan) me’yorlari asosida mahalliy byudjetning real daromadlari bilan bog‘lanmagan holda rejalashtirish hozirgi vaqtda byudjetning xarajatlar qismining daromadlar qismidan sezilarli darajada ortib ketishiga olib kelmoqda. Shu boisdan ta’kidlash lozimki, bu kabi yagona davlat me’yorlarini hozirgi sharoitda qo‘llash xarajat moddalari bo‘yicha mahalliy byudjetlar xarajatlarini ongli tarzda qisqartirishni anglatadi va bu holat xarajat guruhlaridagi u yoki bu moddalar bo‘yicha moliyalashtirish darajasining asoslanmagan tarzda keskin tebranishlariga olib keladi. Ushbu amaliyot natijasida mahalliy moliya organlari va Moliya Vazirligi o‘rtasida mahalliy byudjetlar xarajatlarini prognozlash yuzasidan kelishmovchilik va nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, byudjet xarajatlarining ijtimoiy maqbul va asoslangan davlat me’yorlari ma’lum ijtimoiy standartlar (iste’mol byudjeti, yashash minimumi va h.k.) ning qonuniy tarzda tasdiqlanishini talab etadiki, bu holat yaqin kelajakda yagona davlat me’yorlarini qo‘llashning imkoniyatlari cheklanganligini yana bir bor tasdiqlaydi [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat budjeti taqsimotida ijtimoiy soha xarajatlari va tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini o‘rganishda induksiya, deduksiya, kuzatish, qiyoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Davlat budjeti xarajatlarining budjet darajalari bo‘yicha tahlili 2023–2028-yillarda davlat moliyaviy resurslari hajmining izchil o‘sib borishi va ularning respublika hamda mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanishidagi o‘zgarishlarni namoyon etadi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, davlat budjeti xarajatlari 2023-yilda 281,1 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 310,9 trln so‘mga, 2025-yilda esa 344,8 trln so‘mga yetib, mazkur davrda budjet xarajatlarining barqaror o‘sish tendensiyasini shakllantirgan. Prognoz ko‘rsatkichlariga muvofiq, 2026-yilda davlat budjeti xarajatlarining 402,4 trln so‘mga, 2027-yilda 460,7 trln so‘mga va 2028-yilda 527,9 trln so‘mga yetishi kutilayotgan bo‘lib, bu davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini moliyalashtirish ko‘lamining kengayib borayotganini anglatadi. Respublika budjeti xarajatlari ham tahlil qilinayotgan davrda sezilarli o‘sish dinamikasiga ega bo‘lib, 2023-yildagi 179,4 trln so‘mdan 2025-yilda 263,2 trln so‘mga, 2028-yilga kelib esa 424,4 trln so‘mga yetishi prognoz qilingan. Ayniqsa,


2026–2028-yillarda respublika budjeti xarajatlarining 308,4 trln so‘mdan 424,4 trln so‘mgacha oshishi markazlashgan moliyaviy resurslarning davlat miqyosidagi ustuvor dasturlar va yirik xarajat yo‘nalishlarini moliyalashtirishdagi ahamiyati ortib borishini ko‘rsatadi. Mahalliy budjetlar xarajatlari esa respublika budjetiga nisbatan boshqacha dinamikani namoyon etib, 2023-yildagi 101,7 trln so‘mdan 2024-yilda 86,8 trln so‘mga va 2025-yilda 81,6 trln so‘mga kamaygan bo‘lsa-da, keyingi yillarda qayta o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, mahalliy budjetlar xarajatlarining 2026-yilda 94,0 trln so‘mni, 2027-yilda 95,4 trln so‘mni va 2028-yilda 103,5 trln so‘mni tashkil etishi hududiy darajadagi davlat xizmatlari va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni moliyalashtirish hajmining bosqichma-bosqich kengayishini nazarda tutadi (1-jadval).

1-jadval

Davlat budjeti xarajatlarining budjet darajalari bo‘yicha tahlili, trln so‘m [4]

Ko‘rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil prognoz	2027-yil mo‘ljal	2028-yil mo‘ljal
Davlat budjeti	281,1	310,9	344,8	402,4	460,7	527,9
Respublika budjeti	179,4	224,1	263,2	308,4	365,3	424,4
Mahalliy budjetlar	101,7	86,8	81,6	94,0	95,4	103,5


1-rasmda 2024–2028-yillarda davlat budjeti xarajatlarining asosiy sohalar kesimidagi tarkibi va ularning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan ulushi aks ettirilgan bo‘lib, unda ijtimoiy soha, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, davlat qarziga xizmat ko‘rsatish hamda boshqa xarajatlarning o‘zgarish tendensiyalari ifodalangan. Diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, davlat budjeti xarajatlari tarkibida eng katta ulush ijtimoiy sohaga to‘g‘ri kelib, ushbu ko‘rsatkich 2024–2025-yillarda YaIMning 12,0 foizini tashkil etgan. 2026-yilda ijtimoiy soha xarajatlarining YaIMdagi ulushi 11,1 foizgacha pasayishi prognoz qilingan bo‘lsa-da, 2027–2028-yillarda mazkur ko‘rsatkichning 11,4 foiz darajasida barqarorlashishi kutilmoqda.



1-rasm. Davlat budjetining sohalar kesimida xarajatlarining YaIMdagi ulushi tarkibi va prognozi [4]

Iqtisodiyot xarajatlarining YaIMdagi ulushi 2024-yilda 2,8 foizni, 2025-yilda esa 3,4 foizni tashkil etib, keyingi yillarda 2026-yilda 2,8 foizga hamda 2027–2028-yillarda 2,7 foizga teng bo‘lishi mo‘ljallangan. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini moliyalashtirish xarajatlarining YaIMdagi ulushi tahlil davrida pasayish tendensiyasini namoyon etib, 2024-yildagi 1,4 foizdan 2028-yilda 1,0 foizgacha qisqarishi prognoz qilinmoqda. Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining YaIMdagi ulushi esa 2024-yilda 1,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025–2026-yillarda 1,2 foizga, 2027–2028-yillarda esa 1,4 foizga yetishi kutilmoqda. Mazkur ko‘rsatkichning bosqichma-bosqich oshishi davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq budjet majburiyatlarini rejalashtirish va ularning davlat moliyaviy barqarorligiga ta’sirini muntazam baholab borish zarurligini ko‘rsatadi. Boshqa xarajatlarning YaIMdagi ulushi 2024-yilda 3,9 foizni, 2025-yilda 4,6 foizni tashkil etgan bo‘lib, 2026-yildan boshlab 3,9 foiz va 2027–2028-yillarda 3,8 foiz darajasida shakllanishi prognoz qilingan.

2-rasmda 2024–2028-yillarda davlat budjeti xarajatlarining asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tarkibi, ularning o‘zgarish dinamikasi va istiqboldagi prognoz ko‘rsatkichlari aks ettirilgan bo‘lib, xarajatlar tarkibida ijtimoiy sohaning ustuvor mavqei alohida namoyon bo‘ladi. Diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, ijtimoiy soha xarajatlari 2024-yilda 174 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 206 trln so‘mga, 2026-yilda 220 trln so‘mga yetishi prognoz qilingan. Mazkur xarajatlarning keyingi yillarda ham o‘sib borishi kutilib, 2027-yilda 256 trln so‘mni, 2028-yilda esa 294 trln so‘mni tashkil etishi mo‘ljallangan.




2-rasm. Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlari tarkibi va prognozi [4]

Ijtimoiy soha xarajatlarining bunday o‘sish tendensiyasi davlat budjeti mablag‘larini ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarga safarbar etish ahamiyati

ortib borayotganini ko‘rsatadi. Iqtisodiyot xarajatlari ham tahlil davrida muhim o‘rin egallab, 2024-yildagi 41 trln so‘mdan 2025-yilda 58 trln so‘mga oshgan, 2026-yilda 55 trln so‘mni, 2027-yilda 60 trln so‘mni va 2028-yilda 69 trln so‘mni tashkil etishi prognoz qilingan. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini moliyalashtirish xarajatlari 2024-yilda 20 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025–2026-yillarda 21 trln so‘m, 2027-yilda 24 trln so‘m va 2028-yilda 27 trln so‘m darajasida shakllanishi kutilmoqda. Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining 2024-yildagi 15 trln so‘mdan 2025-yilda 20 trln so‘mga, 2026-yilda 25 trln so‘mga, 2027-yilda 31 trln so‘mga va 2028-yilda 35 trln so‘mga yetishi prognoz qilinishi davlat qarzi bo‘yicha moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun budjet mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganini anglatadi. Boshqa xarajatlar yo‘nalishi ham sezilarli o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2024-yildagi 57 trln so‘mdan 2025-yilda 79 trln so‘mga, 2026-yilda 77 trln so‘mga, 2027-yilda 85 trln so‘mga va 2028-yilda 98 trln so‘mga yetishi mo‘ljallangan. Xarajatlar tarkibidagi mazkur o‘zgarishlar davlat budjeti resurslarini taqsimlashda ijtimoiy majburiyatlar bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanish, davlat boshqaruvi, qarz majburiyatlariga xizmat ko‘rsatish va boshqa ustuvor ehtiyojlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.


Fuqarolarni budjet jarayoniga jalb qilish mexanizmining ishga tushirilishi joylarda aholini qiynab kelayotgan muammolarning yechimini topish va jamoatchilikni budjet jarayonining ishtirokchisiga aylantirishda alohida vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida budjet mablag‘larining bir qismini jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil davom ettirish, tashabbusli budjetlashtirish jarayonlarida fuqarolarning faolligini oshirish hamda o‘tgan davr mobaynida jamlangan tajribalarni inobatga olgan holda mazkur jarayonni yanada takomillashtirish zarur ekanligi qayd etilgan. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2023 yildagi “Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-117-son Qarorida quyidagilar belgilangan (3-rasm).



3-rasm. Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilishi belgilangan choralar [5]

2023-yil birinchi mavsum doirasida o‘tkazilgan tashabbusli budjetlashtirish jarayonida qiymati 1,5 trillion so‘m bo‘lgan 1 666 ta loyiha g‘olib bo‘lganligi ma’lumot uchun qabul qilish, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil birinchi mavsum doirasida o‘tkazilgan tashabbusli budjetlashtirish jarayonlarida har biri 2 mingdan ortiq ovoz to‘plagan, lekin g‘olib deb topilmagan 1 309 ta loyihani amalga oshirish uchun qo‘shimcha ravishda 1,3 trln so‘m mablag‘ ajratish, qo‘shimcha ajratilayotgan mablag‘ 2023-yilda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida rejalashtirilgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirish va boshqalar shular jumlasidandir.

Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlashni samarali tashkil etishda Hisob palatasi va Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasiga tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari doirasida bir qator qo‘shimcha vazifalar yuklatilgan bo‘lib, fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mablag‘larning o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilishini nazorat qilish, har oyda kamida bir marotaba barcha loyihalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni joyiga chiqqan holda o‘rganish va ularni doimiy nazorat qilib borish hamda qurilish va ta’mirlash ishlari bo‘yicha loyihalarning yakunida qurilishda nazorat o‘lchovini o‘tkazish kabilarni qayd etish lozim (4-rasm).



4-rasm. Tashabbusli budjetlashtirishda Hisob palatasi va Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasiga berilgan qo‘shimcha vazifalar [5]

Tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari doirasida budjet tashkilotlarining rahbar xodimlari tomonidan majburiy ovoz yig‘ish bo‘yicha xodimlarga topshiriq berishlari taqiqlanadi. Bunda majburiy ovoz yig‘ishga majburlash tegishli tashkilot xodimlarini majburiy mehnatga jalb qilishga tenglashtiriladi.

G‘olib mahallalarni (qishloqlarni) aniqlash ovoz berish jarayoni boshlanishidan avval keng jamoatchilikka e’lon qilingan holda quyidagi usullardan biri orqali loyihalar to‘plamiga berilgan ovozlar sonidan kelib chiqib aholisi soni kam bo‘lgan mahallalarga

(qishloqlarga) tuzatish koeffitsiyentini qo‘llagan holda loyihalar to‘plamiga berilgan ovozlar sonidan kelib chiqib amalga oshiriladi [6].

Ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra har bir tuman (shahar) uchun jamg‘armada shakllantirilgan mablag‘lar doirasida eng yuqori ko‘rsatkichni egallagan loyihalar to‘plami g‘olib deb topiladi. Bunda loyihalar to‘plami g‘olib deb topilishi uchun kamida 100 ta ovoz to‘plashi lozim bo‘ladi. Ovozlar soni teng bo‘lgan taqdirda, teng ovoz to‘plagan mahallalardan (qishloqlardan) eng yuqori ko‘rsatkichni birinchi bo‘lib qayd etgan loyihalar to‘plami g‘olib deb topiladi.

G‘olib mahallalar (qishloqlar) bo‘yicha kiritilgan loyihalar to‘plami tarkibidagi tadbirlardan tegishli loyihalar to‘plamiga berilgan ovozlar sonining 50 foizidan yuqori ovoz to‘plaganlari amalga oshiriladi. Bunda fuqarolar ovoz berish jarayonida loyihalar to‘plami tarkibidagi haqiqatda mahalla (qishloq) uchun real muammo bo‘lgan tadbirlarni tanlashi lozim bo‘ladi.

Yetarlicha ovoz to‘play olmagan va g‘olib deb topilmagan mahallalar (qishloqlar) bo‘yicha shakllantirilgan loyihalar to‘plami “arxiv” maqomiga o‘tkaziladi. Ushbu loyihalar to‘plami mahalla raislari tomonidan kelgusi jarayonlarda qaytadan ovoz berish jarayoniga tiklanishi mumkin. G‘olib deb topilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag‘ning dastlabki miqdori tegishliligiga ko‘ra tarmoq korxonalari xulosasi asosida loyiha-smeta hujjatlari bo‘yicha aniqlashtiriladi. Tadbir g‘olib deb topilgandan so‘ng uni amalga oshirish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqiladi hamda tadbirning yakuniy qiymatiga aniqlik kiritiladi. G‘olib deb topilgan loyihalar to‘plamining dastlabki qiymatidan kelib chiqib, tadbirlar doirasida amalga oshiriladigan ishlar (tovar, xizmatlar) hajmini kamaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi [6].

Agar tadbirlarning dastlabki qiymatiga nisbatan loyiha-smeta hujjatlariga ko‘ra yakuniy qiymati ko‘proqni tashkil etsa, mazkur holatlarda tadbirlarni amalga oshirish uchun talab etiladigan qo‘shimcha mablag‘ tegishli loyihalar to‘plami tarkibidagi boshqa tadbirlardan iqtisod qilingan mablag‘lar yoki jamg‘armadagi mavjud mablag‘lar hisobidan, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar kengashlari qaroriga asosan tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanadi.

Xulosa

O‘zbekistonda davlat budjeti taqsimotida ijtimoiy soha xarajatlari va tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini o‘rganishda turli iqtisodchi olimlarning nazariy yondashuvlari e’tiborga olingan. O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti taqsimoti, davlat budjetida ijtimoiy soha xarajatlari, tashabbusli budjetlashtirishni amalga oshirish yo‘nalishlari va ularning samarali tashkil etilishiga e’tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi nutqidan. “ Xalq so‘zi” gazetasining 29 dekabr 2018 yil, N 270-soni

2. Zaripo и I.R., Xafizova V.R. Баланс финонсовых ресурсов территорий. 2-изд. УФА:ГП Принт, 2001, 86-90 б.

3. Lucie Sedmihradska. Budget Transparency in Czech Local Government. 16th Annual Conference on Finance and Accounting, ACFA Prague 2015, 29th May 2015.www.scopus.uz

4. https://gov.uz/oz/imv/sections/view/111310 - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2023 yildagi "Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-117-son Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6429853

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.05.2023 yildagi "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida 183-son qarori, https://lex.uz/uz/docs/-6456544#-6457050